

## PSIXALOGIK TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING O'QUV MOTIVLARINI BAXOLASH

Jumabekov Ziyovuddin Xazratqul o'g'li

Guliston Davlat universiteti Pedagogika fakultet. Pedagogika va psixologiya  
yo'nalishi 2-bosqich magistri GulDPi stajor o'qituvchisi

### Annotatsiya:

Keyingi yillarda o'qituvchilarni psixologik bilimlar bilan qurollantirish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda kelajak avlodning yetuk, barkamol inson qilib tarbiyalashda o'qituvchilarning o'rni benihoyat oshgan. Shuning uchun bolajak o'qituvchidan oliy o'quv yurtida o'z mutaxassisliklarini chuqur egallashtirishdan tashqari O'quvchilar psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farqlay olishga, bola taraqqiyoti jarayonini kuzatishdan to'g'ri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga o'rganish talab etilmoqda. Chunki bu ta'lim va tarbiya sirlarini mukammal egallaydigan o'qituvchilar tayyorlashning muxim sharti hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, inson, motiv, motivatsiya, psixik funksiyalar, ta'lim, tarbiya.

Motivlarning navbatdagi, ya'ni ichki motivlar turkumiga individual xususiyatli motivlar kiradiki, ular o'quvchi shaxsida o'qishga nisbatan individual maqsadni ro'yobga chiqaruvchi qo'zg'alish negizida paydo boladi. Chunonchi, bilishga qiziqishning vujudga kelishi shaxsning ma'naviy darajasini oshirish uchun undagi intilishlarning yetilishidir. Bunga o'xshash motivlarning ta'sirida o'quv jarayonida nizoli, ziddiyatli holatlar yuzaga kelmaydi. Albatta, bunday toifaga taalluqli motivlar paydo bo'lishiga qaramay, ba'zan qiyinchiliklar vujudga kelishi ehtimol, chunki bilimlarni o'zlashtirish uchun irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Bunday xossalarga ega irodaviy zo'r berishlar tashqi xalaqit beruvchi qo'zg'atuvchilarning kuchi va imkoniyatini kamaytirishga qaratilgan bo'ladi. Ushbu jarayonga pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan yondashilganda bunday to'laqonli vaziyatni oqilona deyish mumkin.

Hozirgi davrda respublikamizning barcha oliy maktablari va oliy o'quv yurtlarida, hattoki maktablarida psixologik bilimlar alohida e'tibor bilan o'qitilmoqda. (shaxrimizning 23-maktabidagi bank sinfida xam psixologiya fani ukitiladi).

Mamlakatimizda oliy ta'lim ko'p boshqichli tizimga (bakalavriat, magistratura, aspirantura, doktorantura) o'tish munosabati bilan psixologiya fanini o'qitishning o'ziga xos tashkil etishni takozo etmoqda, demak, talabalarga bu soxa buyicha bilim berish ularda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni hamda motivlarini takomillashtirish uchun quyidagi yirik yo'nalishlarda ijodiy psixologik-pedagogik izlanishlarni amalga oshirish lozim.

- Psixologiya fanining metodologik muammolari va ularning talqini.

- Psixologiyaning nazariy materiallari va ularning taxlili.
- Psixologiya o'qitishda etnopsixologik mexanizmlardan foydalanish.
- Uning ommaviy talqini, tadbikiy jabhalarini mukammallashtirish:
- amaliyot, praktikum, laboratoriya mashg'ulotlari sifat darajasini kutarish.
- diagnostik, prognostik metodikalar xamda testlardan foydalanish.
- individual va ijtimoiy treninglarni ommaviylashtirish.
- O'qitishning maxsuldor, faol va innovatsion metodlarini ta'lim tizimiga yoyish.
- Psixologiya o'qitishda gumanizatsiya – assotsianizm, psixoanaliz, kognitivizm, geshtaltpsixologiya, empirizm, gumanistik psixologiya va boshqa yo'nalishlarni ilmiy metodologik, ilmiy nazariy va amaliy jihatlardan nuqson qidirmasdan, balki ularning eng oqilona, taraqqiyparvar tomonlarini amaliyotga tadbiiq etish tavsiyanomasini ishlab chiqish zarur.

Talabalarining o'quv motivini baxolashda jaxon psixologiyasida yaratilgan metodlar, metodikalar, testlar, anketalar, zamonaviy apparatlar, laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish instruktsiyasi, trening, kompyuter dasturlari, praktikum, psixologik kabinetlardan foydalanish uslubi va qo'llanmalarni maxalliy sharoitga moslashtirish va uni sinab ko'rishni keng yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Insonning muayyan xususiyatlarini to'la ochish imkoniyatiga erishish. Psixologiyaning predmeti va ob'ekti mavxum shaxs, xodisa, xulk-atvor, faoliyat va muammoga qaratilmasligi balki real inson, ma'lum yosh, anik jins xususiyatlari yuzasidan ma'lumot berishga yo'naltirilganligi ayni muddaodir. Ana shu jarayondagina tabiatga va jamiyatga munosabat shaxs bilan favkulotdagi vaziyat bilan uzviy boglab urganish imkoniyati yaratadi. Nazariy muammoni amaliy turmush bilan alokasini oqilona tushuntirish va yaqqol namuna keltirish orqali ularga sharx berish talqinini jonlantiradi, talabani insoniy fazilat sifat va xislatlardan andoza olishga etaklaydi.

Psixologiya printsiplari mavzuni o'qitishda va uning determinatorlari ong va faoliyat birligida uzviylik, uygunlashuv o'zaro aloqa etuvchanlik xususiyatlari tugrisida taraqqiyotning psixologik tabiati, unda ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar xamda omillar ularning boshqichlari usishi (biologik) rivojlanish (psixik), kamolot, taraqqiyot yo'zasidan dolzarb yaqqol muammolar moxiyati bilan boglab axborot berish fanning tadbikiyiligini kuchaytirishga xizmat kiladi. Ong va uning psixologik tavsifi tugrisida ma'lumot berilayotganda inson ongi mavjudot deyish bilan cheklanmasdan, balki u ongsizlik ongostlilik va onglilik xolatlarini munosabatlari, funktsiyalari o'zgarishi ularning o'zaro uzluksiz ravishda urin almashtirib turishini ta'minlashni ta'kidlab o'tish muammolaridan ayrim chigalliklarga yordam beradi.

Zamonaviy kadrlar oldiga kuyiladigan eng muxim vazifalardan biri – malakali mutaxassislar sifatida uzligini o'z kobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat xamda xislatlarini bilgan tarzda atrofdegilar mexnatini okilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mexnatning boshqa

soxalarida iktidorli kasb soxibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Bu urinda inson ruxiyati konuniyatlarini urganuvchi psixologiya fanining urni va roli benixoya kattadir.

Motivga genetik yondashilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, bolada tug'ilgandan bevosita faollik ko'rsatishga moyillik hukm suradi: u kuladi (noverbal -muomala shakli), qimirlaydi (fazoda o'rin almashish), qo'l va oyoqlarini harakatlantiradi (moslashish), o'ynaydi (muhit - bola munosabati), gaplashadi (shaxslararo munosabatga kirishish), savollar beradi (dialogik muloqot va boshqalar). Bunga o'xshash xatti-harakatlarning o'zi ularni qoniqtiradi.

XXI asrda juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib urin olgan mustakil O'zbekistonda xam barcha soxalarda tub isloxotlar boshlandi. Bu isloxotlarning barchasi inson omilini xar qachongidan xam yuqori saviyaga kutarib, uning kuchi, idroki saloxiyati, ruxiy xamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bunda inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida kaygurishi muammosi xar qachongidan xam dolzarb masalaga aylandi

XX asrga kelib yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada psixik taraqqiyot omillarini talkin etuvchi hamda talabalarni motivatsiyaga yo'naltirish asosan 2 ta yunalish: biogenetik va sotsiogenetik yunalish vakillari yuzaga keldi. Biogenetik yunalish vakillari uchun psixik rivojlanishni belgilovchi irsiy biogenetik va ijtimoiy omillar yonma-yon turadi, lekin etakchi rolni biologik ya'ni irsiy omillar bajaradi. Bunday karashning kuzga kuringan vakillaridan biri amerikalik psixolog S.Xolle (1844-1924) bulib, u Gekelning **biogenetik** konunini psixologiyada bevosita kuchiradi. Bu nazariyaga kura bola uz psixik taraqqiyotida insonning tarixiy rivojlanish boskichlarini kiskargan xolda boshdan kechiradi.

**Sotsiogenetik** yunalish vakillari esa ijtimoiy omillarni etakchi deb xisoblaydilar. G'arbda keng tarkalgan nazariyalar jumlasiga rollar nazariyasi K.Levinning "Fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi va boshkalar kiradi.

Imkoniyatlar to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, imkoniyat ma'lum faoliyatning kishilar irodasi bilan bog'liq (iroda akti, sifati, prinsipi) obyektiv shart-sharoitlarni o'zida aks ettiradi. Agarda odamlarning shaxsiy kutubxonasi boy bo'lsa, ularning o'qish imkoniyati yuqori darajaga ko'tariladi. Kishilarning xulq-atvori psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, unga ko'pincha ularning obyektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashiladi. Agarda bolaning qo'lga tasodifan biologiya kitobi tushib qolsa, uning shu fanga qiziqishi ortishi kuzatiladi.

L.S.Vigotskiy ta'limining aqliy rivojlanishdagi motivatsiyaning yetakchi rolni ta'kidlar ekan, ta'lim tarbiyada bolaning rivojlanishidagi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog'i lozim deb xisoblangan edi. Ta'lim rivojlanishning faqat tugallangan darajasi asosida qurilmasdan, avvalo xali unga tarkib topmagan narsalarga tayanmog'i kerak. L.S.Vigotskiy boladagi aqliy motivatsiya rivojlanishining 2 darajasi xaqidagi qoidani ifodalab berdi. Birinchi daraja, Vigotskiy aytganidek, aktual rivojlanish darajasi – o'quvchi tayyorligining mavjud darajasi bulib, u o'quvchining hining qanday topshiriqlarni to'la mustaqil bajara olishi bilan xarakterlanadi. Yanxa yuqori bulgan ikkinchi daraja (uni

Vigotskiy eng yaqin rivojlanish zonasi deb atagan) bolaning nimani mustaqil bajara olmasligini, lekin ozroq yordam bilan nimaning uddasidan chiqa olishini ko'rsatadi. Vigotskiy bola bugun kattalar, o'qituvchi yordamida bajarayotgan narsani ertaga mustaqil ravishda uzi bajaradi, eng yaqin rivojlanish zonasiga kirgan narsalar, ta'lim jarayonida aktual rivojlanish jarayoniga o'tadi deb ta'kidlagan edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. S. To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o'quv-metodik qo'llanma). TDPU, - T.: - 2004.
2. E. G'oziyev. Psixologiya. Darslik. «O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. - 2008.
3. P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. Umumiy psixologiya. Darslik. T - 2008.
4. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent - 1998
5. Ta'lim tizirida psixologik xizmatni arnalg a oshirishda psixodiagnostika vositalardan foydalanish. Tuzuvchi N.A Sog'inov.- T, 2001. 40-b.
6. Shoumarov G'.B., Shoumarov Sh.B. Muhabbat va oila. - T, 1999. 120-b.